UO‘K 811.512.133’372:091.1

“O‘LIM” SEMALI FRAZEMALARNING SEMANTIK TAHLILI
(Alisher Navoiyning “Xamsa” asari misolida)

I.A.O‘razova

Maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi “o‘lim” semali frazemalarning semantik va leksik tahlili amalga oshirilib, xulosalar bayon qilingan. Tahlil jarayonida “Hayrat ul-abror” dostonida aniqlangan “o‘lim” semali 24 ta frazema semantik maydonlarga ajratilgan holda ularning shakllanish asosi izohlangan, bir maydonga mansub birliklarning semantik integral va differensial jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *leksema, semema, sema, frazema, frazeosemantik yadro, ko‘chma ma’no.*

В статье проведен семантический и лексический анализ фразем с семой “смерть” в “Хамсе” Алишера Навои и изложены выводы. В ходе анализа выясняется основа образования 24 фразем с семой “смерть”, выявленных в эпосе “Хайрат уль-аброр”, путем разделения их на семантические поля, раскрыты семантический интегральный и дифференциальный аспекты единиц. принадлежащих одному и тому же полю.

Ключевые слова: *лексема, семема, сема, фразема, фразеосемантическое ядро, переносное значение.*

Kirish

Tanatologiyaning asosini tashkil etuvchi “tanatos”, ya’ni “o‘lim” tushunchasi turli millat va elatlarda o‘limga bo‘lgan qarashlari nutqayi nazaridan kelib chiqqan holda nomlangan. Jumladan, “inglizlarda “o‘lmoq” semasi “to go” (“ketmoq”), “to hop off the twig” (“shoxdan sakrash”), nemislarda “die Augen schliessen” (“ko‘zni yummoq”), “heimgehen” (“uzoqqa ketmoq”), italiyaliklarda “ritornerare” (“qaytish”), ispanlarda “irse al otro portrero” (“boshqa yaylovga yo‘l olish”), fransuzlarda “casser sa pipe” (“o‘z trubkasini sindirib qo‘ymoq”), “il dit bonsoir a‘la compagnie” (“kompaniya bilan xayrlashish”) kabi o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi” [1. B. 88].

Azaldan turkiy xalqlar o‘lim tushunchasini bevosita nomlashdan chekingan, imkon qadar bilvosita, ya’ni tabu va evfemizmlar bilan ifodalashgan. “O‘lim” semasining evfemizmlar bilan ifodalanishi eng qadimgi toshbitiklardayoq aks etgan. Jumladan, “To‘nyuquq” bitiktoshida xoqon xotinining o‘limi *joq bolmïš erti* frazemasi bilan (*Qatun joq bolmïš ärti*... – Malika vafot etgan edi) [2. B. 164], “Kultigin” bitiktoshida Kultigin o‘limi *kärgäk bol*= (*Inim Kül tigin kärgäk boltï, özüm saqïntïm... – Inim Kultigin vafot etdi, o‘zim alam chekdim...*) [2. B. 174] evfemizmi bilan berilgani fikrimiz dalili bo‘la oladi. Manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, turkiylarda “o‘lim” semasi turli evfemistik xarakterdagi frazemalar bilan ifodalanishi faol uchraydi. O‘lim bilan bog‘liq axborotlarga qadimdan xalqimiz juda ehtiyotkor yondashgan. Sababi, biror insonga noxush xabar aytilganda yoki yetkazilganda, eshituvchi inson tomonidan doim ham bosiqlik bilan qabul qilinavermagan. Qolaversa, yomon xabar tinglovchining sog‘lig‘iga putur yetkazishi kabi holatlar hayotiy tajribada ham kuzatiladi, shu sabab bunday salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida evfemistik birliklarga murojaat qilingan. Fikrimiz isboti sifatida shuni keltira olamizki, XIV asrning ikkinchi yarmiga oid manbalarda (“Muhabbatnoma”, “Suhayl va Guldursun”, “Gulistoni bit-turkiy”) 390 ta frazeologik birlik qo‘llangan bo‘lib, shundan 24 ta frazema “o‘lim” semasi bilan bog‘liqdir. Ushbu frazemalar o‘lim bilan bog‘liq turli holatlarni aks ettiradi. Ayrim frazemalar qahramonning tabiiy o‘limini ifodalasa (*dünjadan ket=, täŋri kötür=, vüžüdiniŋ ajaqï äžäl balčïqïna bat=*), ayrimlari kishining qatl qilinganligini bildirish uchun qo‘llangan (*hajatiniŋ kökin kes=, qanïn tök=, bašï ket=*), ayrim frazemalardan esa hayotini xavfga qo‘yib, o‘lim sari tik borgan personaj tasvirini berish uchun (*bašïnï, ǯanïnï ber=; baš oynab, ǯan tärkin ur=; ǯannï χatarγa qoj=*) foydalanilgan [3. B. 72–73]. Z.Xolmanovaning qayd etishicha, “Boburnoma”da “o‘lmoq” tushunchasi o‘n to‘qqiz xil shakldagi frazema bilan berilgan. Asarning o‘ttizga yaqin o‘rnida mazkur tushuncha Tangri nomi bilan bog‘lab ifodalangan [4. B. 61].

Material va metodlar

Frazemalarni diaxron aspektda tadqiq qilish yozma manbalarga tayanishni talab qiladi. Har bir millatning hayot ibtidosi va intihosi borasidagi qarashlari shu xalq dunyoqarashi va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda tilida, yozma yodgorliklarida o‘z aksini topadi. Bu borada frazemalarning o‘rni beqiyosdir. XV asrdagi xalq dunyoqarashi, millatning hayot va o‘lim borasidagi qarashlarini o‘rganish uchun shu davrning eng yirik manbasi sanalgan Navoiy “Xamsa”si obyekt sifatida tanlandi va o‘lim bilan bog’liq 24 ta frazeologik birlik tahlilga tortildi. Tanlangan materiallar maydon nazariyasi metodi asosida tasniflandi, muammoni o‘rganishda statistik tahlil, komponent tahlil, leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

“Hayrat ul-abror”da “o‘lim” semali 24 ta frazema qo‘llangan bo‘lib, bu birliklar ma’no nozikligi, ifoda plani va gradatsion semasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Frazemalar obraz xususiyatidan kelib chiqqan holda qo‘llanishi bilan birga ayrim o‘rinlarda muallif munosabatini ham aks ettiradi. Frazemalarning 22 tasi fe’l xarakterida, 1 tasi ravish xarakterida, 1 tasi predikativ birlik shaklidadir. Struktur jihatdan ikki komponentli frazemalar 13 ta bo‘lib, ularning barchasi *ot+fe’l* qolipida shakllangan. Uch komponentli frazemalar 8 ta, ularning 6 tasi *ot+ot+fe’l* qolipida shakllangan, 1 ta frazema *olmosh+ot+fe’l*, 1 ta frazema *ot+ot+modal so‘z* qolipidadir. To‘rt komponentli frazemalar 3ta bo‘lib, 2 tasi *ot+ot+ot+fe’l* qolipida, 1 tasi *ot+sifat+ot+fe’l* qolipida.

Ikki komponentli frazemalar (8 ta)	**Uch komponentli frazemalar (12 ta)**	**To‘rt va to‘rtdan ortiq komponentli frazemalar (4 ta)**
adam ayla=	dayri fanodin chek=	javhari jondin ilik tort=
ajali yet=	hayot munqati’ o‘l=	tig‘i siyosat boshig‘a sur=
bosh uchur=	jahon mulkini qo‘y=	ravzayi jannatqa xirom ayla=
boshin uz=	jismida jon yo‘q	uqbo uzun yo‘lini soz aylamoq
jahondin bor=	do‘zax sori uzzot=	
jon ber=	jon tarkini qil=	
jon chiq=	jon-u ko‘ngul fido ayla=	
joni qurbon	o‘z qonig‘a kir=	
	hayotini fido et=	
	jon qurbon et=	
	jon vido‘ aylagusi	
	jon fido qil=	

Dostonda qo‘llangan frazemalarni semantik xususiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflab, tahlil qilish mumkin.

1. ***Tabiiy o‘limni ifodalagan frazemalar***. Ushbu semantik guruhga oid frazemalar uchun xarakterli bo‘lgan eng muhim jihat XV asr kishilarining o‘lim va hayot haqidagi qarashlarini o‘zida aks ettirishidir. Hayotning Alloh bergan ne’mat ekanligi va bu ne’matning cheklanganiga, o‘lim Alloh tomonidan berilgan qadar ekaniga ishonch natijasida äǯäl jet**=** frazemasi shakllangan:

Jetsä äǯäl muḥtäsïbï netgäsen?
Daf’iğa tadbir ne nav’ etgäsen? [5. B. 282].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Navoiy ajal va o‘limni farqlagan. Ajalni “o‘lim payti”, “o‘lim muddati” [6. B. 48] deb bilgan holda, o‘limni ajal natijasida yuzaga keladigan holat deb qabul qilgan, bizningcha. Bu fikrimizni yuqoridagi frazema ham isbotlab turibdi. Qolaversa, xalq og‘zaki nutqini kuzatsak ham ajal va o‘lim leksemalarining farqlanishiga guvoh bo‘lish mumkin. O‘zbek tili shevalarida *ajali qistadi, ajali kelibdi, ajal kutib turmaydi, ajali quvladi* kabi frazemalar faol qo‘llanadi. Frazema shakllanishi xalq tafakkuri bilan bog‘liqligini inobatga olsak, xalqning ajal haqidagi tasavvurini aniqlashimizga yordam beradi. “Ajal” yadroli frazemalar struktur tarkibiga diqqat qaratsak, turkiy xalqlar ajalni jonli tasavvur qilgani, shu

sababli ajalga nisbatan faol harakatli fe'llarni (*yetmoq, qistamoq, kelmoq, kutib turmoq, quvlamoq*) qo'llaganini kuzatish mumkin. Xalq tasavvuridagi ayni holat shu xalq vakili bo'lgan Navoiy ijodida ham o'z aksini topgan.

O'limdan keyingi hayotning mavjudligi, u dunyoning borligi haqidagi e'tiqoddan kelib chiqib, *däjri fänadïn ček=* frazemasi shakllangan:

Bojla humājunfari firüzbaxt,
Däjri fänadïn čekär olğānda raxt [5. B. 279].

Däjri fäna birikmasi tasavvufiy atama bo'lib, "dunyo lazzatidan kechib, foniy bo'lganlar dunyosi" [6. B. 444] semalarini anglatadi. *Raxt* leksemasi "safar anjomi" [7. B. 610] ma'nosini anglatsa-da, baytda *chek=* fe'li bilan bog'lanib, safar vaqtiga ishora qilmoqda. Bayt mazmuni quyidagicha: *Shunday yuksak martabali baxtiyor podshoh bu o'tkinchi dunyodan ko'chini ko'tarmoqchi bo'lib qolganda...* [8. B. 94]. Tasavvuf ta'limotida u dunyoning borligi haqidagi qarash sababli insonning o'limi bir safar sifatida tushuniladi, ya'ni ruh o'lmaydi, aksincha, bir olamdan boshqa olamga ko'chadi. Inson tanasi tanazzulga uchrab, ruhning boshqa olamga ko'chishi haqida qarashlar ushbu frazemaning shakllanishiga asos bo'lgan. Ayni qarash o'zbek xalq shevalarida faol qo'llanuvchi *safari qarimoq, safar tadorigini ko'rmoq, gali kelmoq, chin dunyoga ketmoq* kabi frazemalar semantikasida ham aks etadi. Zamonaviy o'zbek she'riyati vakili Muhammad Yusuf bir she'rida o'limni sayrga qiyoslagan:

O'lim nima? Bu ham bitta
Sayr, Ona,
O'g'ling qaro yerga ketdi,
Xayr, Ona... [9. B. 8].

O'limning haqligi, bu dunyo va uning ne'matlari o'tkinchi ekanligi haqidagi qarashlardan ǯähan mülkini qoj=, ǯähandïn bar= frazemalari shakllangan: *Qojdï ǯähan mülkini* čün Jazdï Ǯird, Ejlädi Bahrām tana'umni vird [5. B. 347] (Yazdijird jahon mulkini tark etgach, Bahrom maishatga berilib ketdi) [8. B. 114]. Ǯismidä ǯan joq bü makondin barur, χali ilik birlä ǯähandïn barur [5. B. 280].

Jonning ipga qiyoslanishi folklor asarlariga xos jihat sanaladi va bu qarash natijasida shakllangan *joni uzilmoq* frazemasi adabiy tilimizda mavjud. Dostonda ushbu qarash asosida yuzaga kelgan *ḥaǯät munqati' ol=* (hayoti uzulmoq) frazemasi uchraydi: *Maxlasïğa ejlämädi iltifāt, Tāki aŋa munqati' oldï haǯät* [5. B. 231]. (Uni qutqarish uchun iltifot ko'rsatmadi; natijada uning hayoti qirqildi) [8. B. 79]. Ushbu frazema Navoiy asarlari tiliga oid lug'atlarda berilmagan. Birlikdagi *hayot* so'zi metonimiya asosida ma'no ko'chishi orqali "jon" semasini ifodalamoqda. Bilamizki, inson tanasida jon bor ekan, u yashaydi, ya'niki hayot. Jon tanani tark etar ekan, hayoti ham tugaydi. Shu ikki tushuncha o'rtasidagi aloqadorlik hayot leksemasining *jon* semasini ifodalashiga asos bo'lmoqda.

Ruhning abadiyligi, ruhning tanani tark etishi, tananing bu dunyo uchun bir vosita ekanligi, abadiy dunyoning mavjudligi haqidagi tasavvurlar asosida ǯan čïq=, ǯan vida' ejlä=, ravzaji ǯannatqa χïrām ejlä**=** frazemalari shakllangan. Har uchala frazemaning atash semasi "o'lmoq" bo'lib, birliklar orasida gradatsiya kuzatilmaydi. Birliklar uslubiy xoslanishi va baho semasiga ko'ra farqlanadi. ǯan čïq= frazemasi so'zlashuv uslubiga yaqin bo'lib, baho semasi yo'q: *Kim, bu näfäskim* čïqadur ǯan *maŋa, Jar ğamï ejlämiš asan maŋa* [5. B. 335]. ǯan vida' ejlä=, ravzaji ǯannatqa χïrām ejlä= frazemalari esa badiiy uslubga xoslangani bilan ajralib turadi: *Kim,ču vida' eylägüsi jon* aŋa, Hamrah olur joqsa joq ijman aŋa [5. B. 116]. Bu birliklar orasida *ravzaji ǯannatqa χïrām ejlä=* frazemasi baho semasining mavjudligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Ushbu birlikda muallifning obrazga ijobiy munosabati frazemadagi baho semasi orqali ifodalangan: *Ravzaji ǯannatqa ču ejläb χïrām, Ḥalï anïŋ ornïda qājïm maqām* [5. B. 102].

2. ***Bilvosita yuz bergan o'limni ifodalagan frazemalar***. Har bir davrdagi voqelik, ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi til birliklarida, ayniqsa, frazemalar mazmunida aks etishi barchaga ma'lum. Jumladan, XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy boshqaruvda o'lim hukmining mavjudligi, qilgan jinoyatiga ko'ra mahkumlarning turli usulda qatl qilinishi bu holatlar bilan bog'liq frazemalar shakllanishiga sabab bo'lgan. O'lim hukmining boshni tanadan judo qilish orqali amalga oshirilishidan *baš učur=, bašïn üz=, tïğï sijasät bašïğa sür=* frazemalari yuzaga kelgan. Dastlab erkin birikma bo'lgan *baš učur=, bašïn üz=* birikmalari birlamchi transpozitsiya jarayonida metonimiya usuli orqali frazemalashgan. Frazemaning tilda leksemalashuvi natijasida, birlik nafaqat qatl marosimiga, balki boshqa holatlarga nisbatan, masalan, jang maydonida jasorat bilan jang qilish, dushman bilan shiddatli kurashish va ularni qirish holatlariga nisbatan ham qo'llanila boshlagan: *Tegmäk üčün ǯism-u učurmaqqa baš, Anda qïlïb ta'bija köp oq-u taš* [5. B. 43]. *Qahrïdïn ar šeri ǯajān kördi bijm,* Üzdi bašïn *üj süti ičgän jetim* [5. B. 355].

Tïğï sijasät bašïğa sür= frazemasi uslub jihatidan xoslanganligi bilan yuqoridagi ikki frazemadan farq qiladi. Frazema tarkibidagi *siyosat* leksemasi frazema ma'nosinining shakllanishiga asos bo'lmoqda. *Siyosat* leksemasi polisemantik so'z bo'lib, "1.Si-

yosat, intizom saqlash; hukmronlik qilish, boshqarish. 2.Qatl. 3.Tadbir, chora [10. B. 73]" ma'nolarini anglatadi. Ushbu leksemaning "*qatl"* semasi, *surmoq* polisemantik leksemasining "urmoq" [10. B. 127] semasi faollashib, "qatl tig'ini boshiga urmoq" ma'nosini anglatuvchi frazema shakllangan: *Kimsä ölükni jana öltürmädi, Tiğï sijasät bašïğa sürmädi*= [5. B. 382].

Asarda qo'llangan *dozaχ sarï uzat*= frazemasi so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, yuqoridagi birliklardan baho semasining mavjudligi bilan farqlanadi. Birlik muallifning obrazga salbiy munosabatini ifodalashga xizmat qilgan. Birlik o'limdan keyingi hayotning mavjudligi, jannat va do'zax haqidagi tasavvurlar natijasida shakllangan: Čunki uzattï anï dozaχ sarï, öjläki mazbuhni matbax sarï [5. B. 305]. – Shu yo'sinda uni do'zaxga jo'natar ekan, bu qo'yni so'yib, oshxonaga yuborayotgandek edi [8. B. 102].

Navoiy asarlari badiiyati juda yuqori bo'lib, "Hayrat ul-abror"dostonida bu yaqqol ko'rinadi. Ijodkor har bir maqolatni bir muhim san'at asosiga qurib, majoz, tadrij va o'xshatishlardan juda mahorat bilan foydalangan. Navoiy quyidagi baytida ham majozdan unumli foydalangan holda o'lim tushunchasini may bilan ifodalaydi: *Elni bu mäj ejlädi bir-bir* ädäm*, Nävbät erür bizgä dağï däm-bädäm* [5. B. 317]. (Bu maydan odamlar birin-birin yo'q bo'lishadi. Vaqt o'tishi bilan bizga ham navbat kelib qoladi) [7. B. 105]. Baytdagi *adam ayla*= frazemasi "yo'q qilmoq, nobud qilmoq" [6. B. 38] ma'nolarini bildiradi. Frazema badiiy uslubga xoslangan bo'lib, baho semasiga ko'ra neytraldir.

3. ***O'z o'limiga rozilikni ifodalagan frazemalar***. Bu dunyoning o'tkinchi ekani, o'limning haqligi, chin dunyo o'limdan keyin ekanligi haqidagi qarashlardan ǯavhari ǯandïn ilik tart=, 'uqba uzun jolïnï saz ejlä= frazemalari shakllangan. *Ilik tart*= birikmasi mustaqil frazema bo'lib, "chekinmoq", "voz kechmoq" [7. B. 27] ma'nolarini ifodalaydi. Ǯavhari ǯan birikmasi ham frazema bo'lib, "hayot" [6. B. 554] ma'nosini bildiradi. Bu ikki mustaqil frazemaning kontaminatsiyasidan "hayotdan voz kechmoq" semasiga ega yangi frazema shakllangan: *Tart, Navāij, bu ǯähandïn ilik, Qajsï ǯähan,* ǯavhari ǯandïn ilik [5. B. 280]. Kontaminatsiya jarayonida yangi frazema tarkibi jihatidan teng, ma'nodosh bo'lmagan ikki frazeologik birlik qo'shilgan, natijada yangi frazema semasi a'zo qismlar semantikasining birlashishi va boyishi hisobiga shakllangan, bunda yangi frazemaning ma'nosi kuchaygan, emotsional-ekspressivligi oshgan, lingvostilistik mahsuldorlikka erishilgan. Ushbu frazemaga sinonim sifatida hozirgi o'zbek adabiy tilida *hayotdan qo'l yuvmoq* birligi qo'llanadi.

'Uqbā uzun jolïnï sāz ejlä= frazemasi tarkibidagi *'uqbā* leksemasi "narigi dunyo, oxirat" [10. B. 306] ma'nosini, *sāz ejlä*= birligi "yurishga tayyorlanmoq" [10. B. 98] semalarini bildirib, "oxiratning uzun yo'lini yurishga tayyorlanmoq" degan ma'noni anglatadi. Frazemadagi *uzun yo'l* birikmasi u dunyoning abadiyligiga ishora qilmoqda. Birlik u dunyo uchun tayyorlanish, ya'ni toat-ibodat va zikr duolarini o'qish bilan mashg'ul bo'lish, savob amallarni qilish, tom ma'noda o'limga tayyorlanishni ifodalamoqda: *Dünja iši mäjlini az ejläsäm, 'Uqbā uzun jolïnï sāz ejläsäm* [5. B. 375]. – "... bu dunyo ishlariga oz mayl qilsam, u dunyoning uzun yo'lini yaxshi tutsam" [8. B. 123]. O'zbek shevalarida ayni ma'no *u dunyoligini ko'rmoq, narigi dunyoni o'ylamoq* frazemalari bilan ifodalanadi.

Dostonda qo'llangan *ǯan tärkini qïl*= frazemasining lug'atda "o'lmoq" [6. B. 590] ma'nosi berilgan bo'lsa-da, dostonda ushbu birlik "o'limga hozirlanmoq"ni ifodalaydi: *Toqsan ägär boldï jïqïlmaq keräk, Jüz arā ǯan tärkini qïlmaq keräk* [5. B. 318]. – "To'qsonga kirgandan keyin yiqilishi, yuzga to'lgandan so'ng jonni tark etishi kerak" [8. B. 105].

4. *Biror maqsad yo'lida o'limga tayyorlikni ifodalagan frazemalar*. Mumtoz adabiyotda yor uchun o'z jonini qurbon qilishga tayyorlik ishqning yetuklik darajasini ko'rsatadi. Bu tushuncha diniy asosga ega bo'lib, zotan, Alloh uchun eng yaxshisini atash, qurbon qilish buyuriladi ("Qobil va Hobil" hikoyatini eslang). Boburning o'g'li Humoyun kasallanganida, Mir Abulqosim eng qimmatli, eng aziz narsani tasadduq qilishni maslahat beradi, Bobur o'z jonini tasadduq qilgani haqidagi faktlar "Boburnoma"da keltirilgan [11. B. 673]. Ana shu qarash va odatlar asosida shakllangan ǯanï qurban, ǯan qurban et=, ḥaǯätini fida et=, ǯan ber=, ǯan fida qïl=, ǯan-u köŋül fida ejlä= frazemalari "Hayrat ul-abror"da faol qo'llangan. Ushbu frazemalar uchun *qurbon etmoq, fido qilmoq* leksemalari struktur-semantik yadro vazifasini o'tamoqda.

"Qurbon leksemasi arabcha o'zlashma bo'lib, o'zbek tilida: "1.Alloh yo'lida qurbonlik uchun so'yilgan jonliq. 2.*Ko'chma.* biror ezgu maqsad, vatan, sevikli yo'lida o'zini fido qilish. 3.Tabiiy ofat, falokat, ko'ngilsiz voqea yoki boshqalarning qilmishi tufayli qattiq zarar ko'rgan, halok bo'lgan kishi. 4.Qurbon (erkak va xotin-qizlarning ismi)" [12. B. 284–285] ma'nolarida ishlatiladi. Ushbu leksemaning Navoiy davrida ifodalagan ma'nosi hozirgi tilimizdagi ma'nosidan farq qilgani e'tiborlidir. Leksema Navoiy asarlarida "fido qilish, hadya qilish" [13. B. 79] ma'nolarini ifodalab, o'zlashmaning dastlabki ma'nosi frazemalar tarkibida saqlanib qolgan: *Häm Hämäl-u Sävr berib ǯan aŋa,* Ǯan etibān *ikkisi qurban aŋa* [5. B. 43]. *Gär jigitim qïldï fida ǯan saŋa, Man qarï* ǯanï *dağï qurban saŋa* [5. B. 141]. Ushbu frazemalar bugungi kunda

adabiy tilda *jonini qurbon qilmoq* shaklida qo‘llandi.

Navoiy tilida *fida* leksemasi “qurbon, niso; fido qilish, bag‘ishlash” [10. B. 342] ma’nolarini, *fida qïl=/ fida ejlä=* fe’llari “qurbon qilmoq, bag‘ishlamoq” [10. B. 342] ma’nolarini ifodalaydi. *Ḥaǯätini fida et=, ǯan fida qïl=, ǯan-u köŋül fida ejlä=* frazemalarida “bag‘ishlamoq” semasi faolroq bo‘lib, yor uchun o‘z jonidan voz kechib, o‘limga tik qaray olgan obraz tasvirlashda foydalanilgan: “*Ja”sï muχālif sarï ḥarfï nidā, Ja’ni, et allïmda haǯätiŋ fida* [5. B. 6]. Gär jigitim *qïldï fida ǯan saŋa, Man qarï ǯanï dağï qurban saŋa* [5. B. 141]. *Jolïda* ǯan-u köŋül ejläb fida*,* ǯan-u köŋüldän aŋa qïl ‘iqtidā [5. B. 77].

Ǯanï qurban, ǯan qurban et=, ǯan ber= frazemalari uslubi va baho semasiga ko‘ra neytral, *ḥaǯätini fida et=, ǯan fida qïl=, ǯan-u köŋül fida ejlä=* frazemalari esa badiiy uslubga xoslangani va pafosning mavjudligi bilan ajralib turadi.

5. *O‘z o‘limiga sabab bo‘lishni ifodalovchi frazema*. Insonning hayotga va yashashga bo‘lgan ishtiyoqi sabab o‘z jonini qo‘riqlashi, asrashi borasida yoshlikdan ko‘nikma shakllanib boradi. “O‘zini asraganni xudo asraydi” maqoli ana shu hayotiy tavsiyalar mahsuli deyish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, inson qilgan xatti-harakati, noto‘g‘ri qarorlari sabab o‘z o‘limiga sabab bo‘lishi ham mumkin. Sayfi Saroyi bu holatga nisbatan **öz qanï bilän elin jüv=** frazemasini qo‘llaydi. “Hayrat ul-abror”da ushbu ma’no **öz *qanïğa kir=*** frazemasi bilan ifodalangan: *Kimki χïram ejlädi mäjdanïğa, Kirdi özi küč bilä* öz qanïğa [5. B. 304]. – “Kimki bu maydonga kirib kelar ekan, o‘zidan o‘zi o‘z qoniga belanishga majbur edi” [8. B. 101]. Frazema hayotiga xavf borligini bila turib, jangga kirgan kishining holatini ochib berishga xizmat qilgan. Frazema uslub jihatdan va baho semasiga ko‘ra neytral. Frazema komponentlari sof turkiy leksemalardan iborat ekaniga tayanib aytish mumkinki, birlik shu davr xalq tilida qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek shevalarida ayni sema *ajaliga qo‘l bulg‘amoq* frazemasi bilan ifodalanadi.

Xulosa

– frazemalar xalq tafakkuri mahsuli bo‘lib, ularda nafaqat xalqning tili, urf-odatlari, qadriyatlari, balki hayot va olam borasidagi qarashlari ham jo bo‘ladi. Frazemalarni diaxron asosda kognitiv tahlil qilish shu xalq vakillarining ma’lum bir davrdagi olam va borliq haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi;

– hayot va o‘lim mavhum tushuncha bo‘lib, insoniyat o‘limdan keyingi hayot sirlarini anglashga intilgan, bu abadiy mavzu sanaladi. Bu intilish va harakatlar mahsuli sifatida eng qadimgi davrlardan tilda “o‘lim” semali frazemalar shakllangan. “O‘lim” semasi har bir ijodkor asarida o‘ziga xos yangi frazemalar bilan ifodalangan. Ammo ularning aksariyati bir xil tasavvur, ya’ni diniy qarashlar asosida shakllangan.

– Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida “o‘lim” semali 24 ta frazema borligi aniqlandi. Bu birliklarning aksariyati fe’l xarakterida bo‘lib, buni turkiy tillarda fe’l gapning markazi sifatida kelishi, fe’llarda uyushtiruvchilik xususiyati kuchliligi bilan bog‘lash mumkin. Ya’ni gapning eng muhim bo‘lagini leksema emas, frazema bilan berish orqali ham nutqning obrazliligi oshadi, emotsianal-ekspressivlik jihati ortadi.

– dostondagi frazemalar besh semantik maydonda tahlil qilindi. Har bir birlik ifoda shakli, baho semasi yoki uslubiy xoslanishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Frazemalar orasida xalq tilidan olingani ham, Navoiy qalamiga mansub yangi birliklar ham mavjud bo‘lib, ijodkor ularni mahorat bilan qo‘llagan.

– tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dostondagi frazemalar uch xil usulda hosil qilingan: real voqelikning transpozitsiyaga uchrashidan hosil bo‘lgan frazemalar; diniy qarashlar natijasida hosil bo‘lgan frazemalar, ko‘chimlar asosida hosil bo‘lgan frazemalar. Shuni ta’kidlash lozimki, doston didaktik xarakterdagi asar bo‘lgani bois diniy qarashlar asosida shakllangan frazemalar ko‘pchilikni tashkil qiladi va ular ham ko‘chimlar asosida yuzaga kelgan.

Adabiyotlar:

1. *Рязанцев С.* Танаталогия – наука о смерти. – Санкт-Петербург: Восточно-Европейский Институт психоанализа, 1994. – 336 с.

2. *Раҳмонов Н., Содиқов* Қ. Ўзбек тили тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий ҳамжамияти, 2009. – 224 b.

3. *O‘razova I.* XIV asrning II yarmi turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi. – Toshkent: Book-many print, 2023. – 204 b.

4. *Холманова З.* “Бобурнома”даги эвфемизмларнинг функционал-семантик хусусиятлари // Тил ва адабиёт таълими, 2007. – № 6. – Б. 61–72.

5. *Navoiy A.* Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. –384 b.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / А.И.Фозилов таҳрири остида. IV томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / А.И.Фозилов таҳрири остида. IV томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 644 б.
8. Навоий А. Хамса [Матн]: Насрий баён. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 712 б.
9. *Yusuf M.* Iymon qo‘shig‘i. She’rlar. – Andijon: Andijon nashriyot-matbaa, 2004. – 75 b.
10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / А.И.Фозилов таҳрири остида. IV томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1983. – 624 б.
11. *Bobur, Zahiriddin Muhammad.* Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 704 b.
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. / A.Madvaliyev, D.Xudayberganova tahriri ostida. 6 jildlik. 4-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 824 b.
13. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / А.И.Фозилов таҳрири остида. IV томлик. 4-том. – Тошкент: Фан, 1984. – 636 б.

SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASES LIKE “DEATH” (in the example of Navoi’s work “Khamsa”)

Iqbol A. O‘razova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 119-125.

[1]Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Tashkent, str. Yusuf Khos Hajib, 103 (Uzbekistan). E-mail: orazovaiqbola@gmail.com

Key words: lexeme, sememe, seme, phraseme, phraseosemantic core, figurative meaning.

The concept of “thanatos”, i.e. “death”, which is the basis of thanatology, was named in different nationalities and peoples based on the speech of these people’s views on death.), “to hop off the twig”, “die Augen schliessen” (“close the eyes”), “heimgehen” (“go away”) in German, “ritornerare” (“return to zero”) in Italian, in Spanish “irse al otro portrero” (“to leave for another pasture”), in French “casser sa pipe” (“to break one’s pipe”), “il dit bonsoir a’la compagnie” (“farewell to the company”) is interpreted” [1. P. 88].

From time immemorial, the Turkic peoples refrained from naming the concept of death directly, expressing it as indirectly as possible, that is, with taboos and euphemisms. Expression of the theme of “death” with euphemisms is reflected in the oldest stone inscriptions. For example, in the “Tunyuquq” inscription, the death of the khagan’s wife was written with the phrase “Qatun joq bolmïš ärti... – The princess had died” [2. P. 164] bol= (Inim Kültigin kärgäk boltï, özüm saqıntïm... – Inim Kultigin died, I myself suffered...) [2. P. 174] can be a proof of our opinion. Based on the analysis of the sources, it can be said that the expression of the “death” concept with various euphemistic phrases is active in Turks. Since ancient times, our people have been very cautious about information related to death. The reason is that when bad news is told or delivered to every person, it is not always accepted by the person who hears it. In addition, cases such as bad news harming the listener’s health are also observed in life experience, which is why euphemistic units are used in order to prevent such negative consequences. As a proof of our opinion, we can cite that in the sources of the second half of the 14th century (“Muhabbatnama”, “Suhayl va Guldursun”, “Gulistoni bit-turkiy”) 390 phraseological units are used, 24 of which are “death”. is related to the theme. These phrases represent different situations related to death. Some phrases express the natural death of the hero [dünjadan ket=, täŋri köttur=, vüǯüdiniŋ ajaqï äǯäl balčïqïna bat=], some are used to reveal the character’s execution [hajatiniŋ kökin kes=, qanïn tök=, başï ket=], and from some phrases to give an image of a character who risked his life and went straight to death [başïnï, ǯanïnï ber=; bashing,

ǯan tärkin ur=; ǯannï χatarga qoj=] is used [3. P. 72-73]. According to Z. Kholmanova, in “Boburnoma”, the concept of “dying” is expressed by phrasemes of nineteen different forms. In about thirty places of the work, “to die” is reflected in connection with the name of God [4. P. 61].

References:

1. Ryazancev, S. (1994) *Tanatalogiya – nauka o smerti* [Anatomy is a science]. Sank-Peterburg. Vostochno-Yevropejskij Institut psihoanaliza.

2. Rahmonov, N., Sadikov, Q. (2009) *O‘zbek tili tarixi* [History of the Uzbek language]. Tashkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy hamjamiyati.

3. Orazova, I. (2023) *XIV asrning II yarmi turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi* [Study of phrases in Turkish written sources of the second half of the 14th century]. Tashkent: Book-many print.

4. Kholmanova, Z. (2007) “Boburnoma”dagi evfemizmlarning funksional-semantik xususiyatlari [Functional-semantic features of euphemisms in “Boburnoma”]. *Til va adabiyot ta’limi*. No 6. Pp. 61-72.

5. Navoi, A. (2020) *Hayrat ul-abror* [Hayrat ul-Abrar]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

6. Fozilov, A.I (ed.) (1983) Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati [Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi’s works]. In 4 volumes. Vol. 1. Tashkent: Fan.

7. Fozilov, A.I (ed.) (1983) Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati [Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi’s works]. In 4 volumes. Vol. 2. Tashkent: Fan.

8. Navoi, A. (2019) Hamsa [Text]: Nasriy bayon [Prose narrative]. Tashkent: Navruz.

9. Yusuf, M. (2004) Iymon qo‘shig‘i. She’rlar [Faith song. Poems]. Andijan: Andijon nashriyot-matbaa.

10. Fozilov, A.I (ed.) (1984) Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati [Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi’s works]. In 4 volumes. Vol. 3. Tashkent: Fan.

11. Babur, Z.M. (2015) Boburnoma [Boburnama]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

12. Madvaliyev A., Xudayberganova D. (ed.) (2023) O‘zbek tilining izohli lug‘ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 6 volumes. Vol. 4. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

13. Fozilov, A.I (ed.) (1985) Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati [Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi’s works]. In 4 volumes. Vol. 4. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma’lumot:

O‘RAZOVA Iqbol Abdikarimovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti. E-mail: orazovaiqbola@gmail.com